

2022-yil – Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili

IJODIY PARVOZ

2022-yil aprel № 4 (108) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz ijodiyparvozgazetasi



9-aprel – Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun



Buyuk Temurga ehtirom

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 686 yilligiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Temuriylar tarixi davlat muzeysi ilmiy xodimlari Komiljon Sultonov, Botirali Yuldashev, professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishchi xodimlar, talabalar qatnashgan tadbirda institutning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlardan bo'yicha prorektor Eldor Shermonov so'z olib, buyuk sarkarda va davlat arbobining hayot yo'li, mamlakatimizda Amir Temurga ko'rsatilayotgan ehtirom, Amir Temur va temuriylarning milliy davlatchilik, ilm-fan, madaniyat sohalari taraqqiyotiga qo'shgan ulkan va boy merosi haqida muhim fikrlarni aytilib o'tdi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish, ulug' ajdodlarimizning o'limas merosini o'rganish hamda targ'ib etish, uning mazmun-mohiyatini yoshlarimiz ongu shuuriga singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Temuriylar davrida san'at va madaniyat

Mustaqillik yillarda yurtimizda tarixni yozma manbalar asosida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi.
Ajdodlarimiz tomonidan uzoq o'tmishda yaratilgan madaniy-ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib qilish dolzarb masalalar qatoriga qo'yildi. Ilm-fan, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning unutilgan nomlari qayta tiklandi.

Mohir sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan, madaniyat homisi bo'lgan Amir Temur ana shunday tarixiy shaxslardan biridir. Hazrat Sohibqiron markazlashgan davlatga asos soldi, uni har tomonloma mustahkmalab, rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va halqlarni birlashtirdi. Uning hukmdorlik yillarda madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va she'riyat yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Turonzamin mo'g'ullar istilosini asoratidan ozod etildi. Amir Temur xalq daxilsizligi, tinchligi va osoyishtaligi, obodlik va farovonlikda rivojlanishini to'liq va ishonchli kafolatlay oladigan

markazlashgan qudratli davlatni vujudga keltirdi, uning amru irodasi ostida bu yerda hayot har taraflama gullab-yashnadi. Turonzamin Amir Temur davrida Buyuk Ipak yo'lining qaynoq, gavjum, fayzli-barakali go'shalardan biriga aylandi. Amir Temur va temuriylar davrida yashagan muarrixlar Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Mirxon, Ibn Arabshoh, Muiniddin Nataniy va boshqa qator mualliflarning aksariyati o'sha davrda yashaganlilar uchun bo'lib o'tgan voqe va hodisalarni uning bevosita hamda bilvosita shohidlari sifatida jonli va ishonchli tarza bayon qilib berilgan.



berilayotgan e'tibor, ularga yaratilayotgan sharoitlar bilan tanishidi hamda talabalarini qiziqirayotgan savollariiga javob berildi. Talabalar turar joylaridagi sanitariya gigiyena holatlari, yotoqxonalarini yangi jihozlar bilan ta'minlash jarayonlari, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish borasida amalga oshirilayotgan ishlardan kechirildi.

Bu yerda talabalarining ovqatlanishi, internet tarmog'idan foydalanish, kitob mutolaa qilishi, gazeta va jurnal o'qishi, aqliy salohiyatlarini, bilim darajalarini oshirishi, televizor tomosha qilishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoxda. Talabalarini ma'naviy ongini shaklantirish hamda ma'nana yetuk qilib tarbiyalash maqsadida, birinchi va ikkinchi talabalar turar joyida zamonaviy

ma'naviyat va ma'rifat xonalari tashkil etilgan. Binoning har bir qavatida talabalar uchun oshxona, yuvinish xonasasi va zamonaviy kir yuvish mashinasi bilan ta'minlangan xonalar mavjud. Kompyuter xonasida yangi, zamonaviy kompyuterlar olib kelib o'rnatilgan.

Bu esa o'z navbatida, institut rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli sa'y-harakatlar nafaqat ta'limgan borasida, balki oliyoghda ta'limgan olayotgan yoshlarning talabalar turar joyidagi qulaysiliklar, ular uchun yaxshi sharoitlar yaratib berishga ham qaratilayotganidan dalolat beradi.

Chunki O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti har tomonloma yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o'zing zimmasiya yuklatilgan vazifalarini o'z vaqtida bajaradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni maqsad qilgan.

Qalbimizda mangu yashar Muhammad Yusuf



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'zining betakror asarlari orqali o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirgan serqirra ijod sohibi, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 68 yilligi munosabati bilan "Vatan yagonasan dilimda doim" nomli adabiy-badiiy tadbir tashkil etildi.

Professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishchi xodimlar, talabalar qatnashgan tadbirda institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev so'z olib, talaba-yoshlarga Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyati, uning adabiy merosi, shoir asarlарining navqiron avlod tarbiyasida tutgan ahamiyati xususida muhim fikrlarni aytilib o'tdi. Shuningdek, Turkiya davlatining Anqara shahrida "Muhammed Yusuf secmeler" nomli turkcha tarjima saylanma kitobi taqdimoti o'tkazilgani ta'kidlandi. Qayd etildiki, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) tomonidan chop etilgan ushbu kitob taqdimotida shoirning hayot yo'li, ijodi haqidagi iliq fikrlar bildirilgan. Shuningdek, poytaxtimizdag'i "Adiblar xiyoboni"da O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazilgani, unda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etgani, "Qora quyosh" spektakli namoyish qilingani va u yig'ilganlarning barchasiga ma'qul kelgani mammuniyat bilan e'tirof etildi.

– Bachamizga ma'lumki, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga biriktirilgan, – deydi professor Ibrohim Yo'ldoshev. – Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan tadbirlar rejasiga belgilab olingan. "Muhammad Yusuf" nomi bilan ataluvchi ko'sh, shoir ijodi va hayoti aks etgan alohida o'quv xonasi tashkil etildi. Institut professor-o'qituvchilar, talabalarini ishtirokida "Mangu osmon", Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dramatik dostoni asosida "Qora quyosh" spektakllari sahnalashtirildi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor, taniqli rejissor Hamida Mahmudova tomonidan sahnalashtirgan "Mangu osmon" spektaklida Muhammad Yusufning tug'ilishidan tortib, umrining oxirigacha bo'lgan voqealar aks ettilrigan. "Mangu osmon" spektakli shoirning hayoti va ijodiy yo'lini xronologik tarzda namoyon etishga xizmat qiluvchi sahna asari bo'lib, uning suyjet va kompozitsiyasi shoir haqidagi zamondoshlar xotirasasi va she'rlari asosiga qurilgan.

Institutdagi sharoitlar bilan tanishdi

Mamlakatimizdagi oliy ta'limgan muassasalarining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlardan bo'yicha prorektoridan iborat Oliy ta'limgan vazirligining ishchi guruhi a'zolari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi. Mehmonegosh ta'limgan dargohida yaratilgan shart-sharoitlar, amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorli bilan yaqindan tanishdilar.

O'tkazilgan o'zaro muloqot davomida mamlakatimizda pedagog xodimlar va talaba yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, institut faoliyati haqida ma'lumot berildi. Tomonlarni qiziqitirgan masalalar bo'yicha mulohazalar bildirildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida axborot-kutubxona faoliyatini yanada rivojlantirish borasida yuksak samaraliga vazifalar amalga oshirilmoqda. Ta'limgan dargohida tahsil olayotgan talabalarning axborotdan

erkin foydalanishini, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo'lishini ta'minlash masalasiga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Ayni paytda mazkur ta'limgan dargohida axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning safat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrabavaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylangan.

Tashrif davomida talabalar turar joyida yoshlarga

ma'naviyat va ma'rifat xonalari tashkil etilgan. Binoning har bir qavatida talabalar uchun oshxona, yuvinish xonasasi va zamonaviy kir yuvish mashinasi bilan ta'minlangan xonalar mavjud. Kompyuter xonasida yangi, zamonaviy kompyuterlar olib kelib o'rnatilgan.

Bu esa o'z navbatida, institut rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli sa'y-harakatlar nafaqat ta'limgan borasida, balki oliyoghda ta'limgan olayotgan yoshlarning talabalar turar joyidagi qulaysiliklar, ular uchun yaxshi sharoitlar yaratib berishga ham qaratilayotganidan dalolat beradi.

Chunki O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti har tomonloma yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o'zing zimmasiya yuklatilgan vazifalarini o'z vaqtida bajaradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni maqsad qilgan.



Temuriylar davrida san'at va madaniyat



Temuriylar davri tomosha san'atlari, bayramlari to'g'risida ma'lumotlar va umumlashmalar ko'plab saqlanib qolgan. Shu ma'noda Zayniddin Vosifyining "Badoe' ul-vaoqe", Xondamirning "Makorim ul-ahloq", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Xasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Ibn Arab shohning "Amir Temur tarixi" nomli asarlari qimmatlidir.

Hozircha, birlgina Husayn Voiz Koshifiyining "Futuvvatnomai sultoni yohud javonmardlik tariqati" risolasida o'yin va tomoshalarning ayrim toifalari xususida fikr yuritiladi.

Shuningdek, o'tmishda an'anaviy teatr, qo'g'irchoqbozlik, raqs, xalq sirk, qo'shiqchilikning barcha shakllari, turлari "Tomosha" degan birlgina istiloh bilan ifodalangan. Asli arabcha bu so'z "Qarash, ko'zdan kechirish" degan ma'nolarni anglatadi. Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida uning ma'no doirasini juda keng bo'lib, ko'pehilikkha mo'ljallangan hamda ko'ruchvi va tinglovchini quvontiradigan yoki qayg'urtiradigan, ba'zan hatto jumbushga soladigan ijrolar, maydon ma'rakalari, marosimlar bilan bog'liq namoyishlar va o'yinlar – barchasi "Tomosha" deb yuritilgan. Turkiyachada "O'yin" atamasi ham ishlatalgan. Biroq uning qo'llash doirasini haddan tashqari juda keng bo'lib, ermak mashq'ulotlar, badantarbiya va sportga aloqador sohalarni ham o'z ichiga olgan.

Rui Gonsales de Klavixona boshliq guruhning Amir Temur huzuriga elchilik sayohati juda uzoq, xavf-xatar va mashaqqatlar bilan to'la safar bo'ldi. Shuni ham aytish kerakki, o'shanda Klavixo bilan birga Bobil (Misr) va Turkiya sultonining elchilari ham Samarcanda kelgandi.

Klavixoning elchilik vaqtlarida, ya'mi 1403-1406-yillarda mobaynida Amir Temur ko'l ostidagi mamlakat va shaharlarning umumiyyatini ahvoli, aholining kun kechirishi, Temur va

yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do'konlar, ustaxonalar, temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda, Mo'g'i-liston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan savdo-sotiq va madaniy aloqalari; Amir Temur saroyida amalda bo'lgan taribt-qoidalar haqida e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

Rui Gonsales de Klavixoning yozi-shicha, Amir Temur "Qaysi bir mamlakatni zabit etgan va bo'ysuntirgan bo'lsa, ularning hammasidan odamlar, Samarcand va uning atrofidi yerlarga joylashtirdi. Shoh har xil hunarmadlarni yig'ishga, ayniqsa, ko'p harakat qildi".

Amir Temuring tarjimai hol shaklida yozilgan "Zafar yo'li"da keltirishicha, "O'n ikki yoshga to'lganimda, – deb yozadi Sohibqiron, – bolalarcha o'yinlardan orlanadigan bo'ldim". Amir Temur endi ot minish, chavandozlik mashqlariga, ov qilishga mehr qo'ya boshlaydi. "O'n besh yoshga to'lganimda ot minib ovchilik qilishni juda sevib qoldim va bu ishda mahoratim kamolga yetdi" – deb ta'kidlaydi Sohibqiron. Ammo shunda ham "Urish-urish" o'ynidan voz kechmagan. Faqat endi o'yin ilgariday cho'p ot bilan emas, haqiqiy otlar bilan jiddiy yo'sinda olib borilgan. Bu to'g'risida "Tajrimai hol" da shunday ma'lumot bor: "Yigirma yoshga to'lganimda tengdoshlarini bilan tez-tez urush mashqlarini o'tkazib turdim: bunda ularni ikki guruhga bo'lib, birini ikkinchisi bilan jang qilishini mashq qildim". Shu tarzda oddiy ermak o'yin haqiqiy jangovor mashqqa aylandi.

Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomi, Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqa olimlar ham shuni qayd etishadi. Misr, Shom, Ro'm, Ozarboyjon, Eron, Xorazm, Hindiston va ko'plab boshqa yurtlardan minglab hunarmandlar ko'chirib keltirilgan va hammasi ish bilan ta'minlangan. "Shoh, – deb yozadi

Klavixo, – turli tomonidan Samarcandga keltirilgan har xil tojfadagi erkak va ayollarning hammasi, aytishlaricha, bir yuz ellik mingdan oshiq bo'lgan. Bular orasida turk, arab va boshqa elatlar, arman xristianlari, yunon katoliklari, nasroniyalar, yakobitlar va yuzi bilan o'tga topinuvchi o'ziga xos mashabga ega bo'lgan kishilar ham bor edi".

Olib kelingan xaloyiq hayratlanarli darajada ko'p ediki, shaharga, ko'cha va maydonlarga, qishloqlarga, hatto shahar tashqarisidagi daraxtlar ostiga, g'orlarga ham odam sig'may ketgan edi. Amir Temur ularni bir-biridan ajratmasdan, qavmi va oilasi bilan birga jamao-jamaoa joylashtirgan, zarur shart-sharoit yaratib bergan. Chunki yangi joyda o'z hunarlarini yo'lda qo'yishlari, mahorat va bilimlarini namoyon qilishlari uchun ular yotsiramasligi, mahkam o'rashib olishlari kerak edi.

Samarcand atrofida Damashq, Misr, Bog'dod, Sultoniy, Sherzo nomli qishloqlarning paydo bo'lishini shu bilan izohlash mumkin. Bunday qishloqlar Shahrisabz, Qarshi, Buxoro atroflarida ham yuzaga kelgan. XIV asr oxirlaridayoq qurilishda birga ishlagan mahalliy va kelgindi me'morlar, ustalar o'rtasida o'zarot'a'sir va o'ziga xos ijodiy amaliy birdamlik yuzaga kelgan. Musiqa, raqs, tomosha san'atlarida bunday birdamlik va uyg'unlik birmuncha kechroq paydo bo'lgan, deb o'yaylimiz. XV asr boshlaridayoq umumiy badiiy maktablar shakllangan. Natijada nainki me'morchilik, naqqoshlik, o'ymakorlik va boshqa qator hunarlarda, balki musavvirchilik, musiqa, raqs, tomosha san'atlarida ham keskin yuksalishlar yuz berdi. Buni aksar olimlar uyg'onish davri, temuriylar renessansi deb ataydilar.

Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" muqaddimasida Chingizxon bilan Amir Temur o'ttasidadagi farqqa to'xtalib shunday yozadi: "Chingizxon qaysi shahar va viloyatnikim bosib olgan bo'lsa, na ul joydan asar goldi-yu, na



bayramona tadbirlarda ko'plab iqtidorli talabalarimiz munosib ishtiroy etishmoqda.

Bugungi tadbir davomida 1-bosqich "Estrada aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishi talabalarini tomonidan "Balerina" qo'g'irchoqlar raqsi ko'rsatilgan bo'lsa, 3-bosqich "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishi talabalarini "Usta Gulmat hangomalari" ni namoyish etishdi. 4-bosqich "Dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlar ishtirokida tayyorlangan Gogolning "Revizor" asari asosidagi sahna ko'rinishi ham yig'ilganlarga katta taassurot qoldirdi.

Qolaversa, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekiston xalq hofizi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvonlari sohiblari, iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan chiqishlari hamda dilrabo kuy-ko'shiqlar yig'ilganlarni xushnud etdi. Xonanda-yu, sozandalarning har bir chiqishlari yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Orrombaxsh qo'shiqlarga hamohang tarzda iyo qilingan go'zal raqslar esa barchani davraga chorladı.

Shuningdek, ushbu tadbir munosabati bilan "Asaxiy books" nashriyotining kitoblar yarmarkasi ham tashkil etildi.

Bayram tadbirini barchada esda qolarli kun bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Turli festivallarda, mana shunday

ulusidan xabar Hazrat Cobibqironning baxtiyor zamonda fatih etilgan joylarda esa nizochilar va dushmanlarning ixtiyoridan butunlay chiqdi va ahvoli oldingidan ham ancha yaxshiroq va obodroq, xalqi esa tinch va xursand bo'lib yashagan".

Amir Temuring bolaligi ko'pgina manbalarda afsonaviy yo'sinda keltilgan. Mening nazarimda, Temur otasi – barlos nasabining sardorlaridan bo'lmish Tarag'ay Bahodirning pano-hida o'sha zamonda aslzodalarga xos aqliy va jismoniy tarbiyaning barcha turlaridan bahra olgan, ham aqlan, ham jismonan chiniqib borgan. Tili chiqib, aqlini tanigandan boshlab to'o'nikki yoshga to'lguna qadar muktabda o'qish, savodxon bo'lish bilan birga ertak, so'ng tarixiy qissa va rivoyatlar tinglashni xush ko'rgan, tengqurlari bilan har xil harakatlari o'ynilar o'ynagan. O'yinlari murakkablashib borgan.

Ot ustida olishuv, poya, yakkama – yakkaka kurash, "Urish – urish" o'yinlari shular jumslasidandir. "Ko'chada men bolalar bilan o'ynardim, – deb yozadi Sohibqiron o'zining "Tarjimai holi"da. – Bolalar bilan urush-urush o'ynab, o'zimni amir etib tayinlardim-da, o'yinni boshqarardim va bolalarning bir guruhi ikkinchi guruhi bilan urishitishni masq qilardim".

Amir Temur va temuriylar davlatida turli bayramlar, sayillar, tomoshalar o'tkazilib kelinganligi to'g'risida ko'pgina ilmiy ma'lumotlar bor. Ma'rakalarda har toifa ijrochilar, san'atkorlarning aralash guruhlari o'z mahoratlarini namoyish etishgan bo'lsa, teatr slashgan sayillar va namoyishlarda minglab har xil ijrochilar qatnashgan va o'zaro bellashgan.

Amir Temur Movarounnaharda azaldan mavjud bo'lgan an'analarini davom ettingan holda, o'zining har bir g'alabasini bayram, to'y bilan nishonlagan. Har bir aziz mehnemoni ziyoferat va bazm bilan siyagan. Oilaviy marosimlarni ham sozanda, xonanda va raqqossalrsiz, umuman olganda, o'yinchilarning katta-katta guruhlarini jalb etgan holda o'tkazishni yoqtirgan. Uning davrida xalq bayramlari juda ham keng ko'lamda nishonlanganligini tarixiy manbalardan topishimiz mumkin. Xos bazmlarda maqom kuylari chalingan. Bu kuylarga raqqosalr xirom etgan, masxara va muqallidlar

kuldirgan, bayramlarda katta maydon va ma'rakalarga yarasha tomoshalar ko'rsatilgan.

Amir Temuring ibratli hayoti va davlatdorlik iqtidori, faoliyati, saltanati tarixi, undagi ilm-fan va madaniyatni o'rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo'nalishlaridan bire sifatida doimo jahon olimlari, davlat rahbarlari, siyosatchilar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Temuriylar tarixiga oid manbalar jahon miqyosida turli tillarda tarjima qilingan hamda ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan. Dunyo tarixshunosligida Amir Temur davrini o'rganishga oid nashrlar kun sayin ortmoqda. Pirovardida jahon jamiyatshunosligida "Temurshunoslik" mustaqil ilmiy yo'nalishi shakllandi.

Bugun Amir Temur va Temuriylar sulolasining dunyo sivilizatsiyasi rivojiga, insoniyatning ilmiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-g'oyaviy, madaniy va tafakkur darajasi keskin ko'tarilishiga qo'shgan hissasi beqiyosligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Juhon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san'at va ababiyot taraqqiyotini hamda ulug' kashfiyat va ixtirolarda o'z aksini topgan davr, xalqimiz esa shu paytgacha ikki marotaba Renessansga asos solgan el sifatida e'tirof etadi. Ya'ni xalqimiz haqli ravishda Renessans yarata olib kam sonli xalqlar sirasiga kiritiladi.

O'zbekistonda taraqqiyotning yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanish va yuksalishlar bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, mamlakatimiz siyosiy-huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hayotini barqaror izga tushirish va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, tarixshunoslikda ham ajoddarlarimiz o'tmishini o'rganish, unga to'g'ri va xolis ilmiy baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun keng yo'li ochildi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning havas qilsa arziyidigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziyidigan ulug' ajoddarlarimiz bor".

Qunduzxon NISHONBOYEVA,
San'atshunoslik va
madaniyatshunoslik kafedrasi
dotsenti, t.f.n.

15-APREL – "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SAN'AT XODIMLARI KUNI"

SAN'ATDAN BAXTINI TOPGANLAR

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda
15-aprel – "O'zbekiston Respublikasi
madaniyat va san'at xodimlari kuni" sifatida
e'lon qilingan. Shu sana munosabati bilan
bugun erta tongdan O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti o'quv binolari
monand bayramona bezatildi, musiqa
sadolari yangrab, barchani bayramga
chorladi. "San'atdan baxtini topganlar"
nomli teatrlashtirilgan bayram dasturi
tashkil etildi.

Institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishchi xodimlar, talabalar qatnashgan tadbirda so'z oлган O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'idoshev barchani ushbu ayyom bilan samimiy qutladi. Sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat, baxt va ormad, oilalariga tinchlik-xotirjamlik, fayz-baraka, mehnat faoliyatida ulkan zafarlar tiladi. Keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, aholi farovonligi yo'lida olib borilayotgan islohotlarni e'tirof etdi.

Ta'kidlandiki, yangi taraqqiyot bosqichini bosayotgan mamlakatimizda ta'lif sohasida ham katta qadamlar tashlanmoqda. Mamlakatimiz ta'lif tizimidagi samarali islohotlar, yuksak o'zgarishlar, yangiliklar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'lmoxda. O'quv maskanimizda fan va san'at, ijodiy faoliyat va amaliy texnologiyalar uyg'unlashgan holda ta'lif beriladi. Madaniyat, san'at yo'nalishidagi darsliklar, ilmiy-metodik adapbiyotlar o'quv qo'llanmalari bilan mutazam ta'minlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Chunki bu olyi ta'lif dargohining asosiy maqsadi o'z sohasining malakali kadrlarini tayyorlash, yoshlarga keng imkoniyatlari yaratib berish va ularning iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bugungi yoshlar yurtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, aholi farovonligi yo'lida olib borilayotgan islohotlarni e'tirof etdi.

Ta'kidlandiki, yangi taraqqiyot bosqichini bosayotgan mamlakatimizda ta'lif sohasida ham katta qadamlar tashlanmoqda. Mamlakatimiz ta'lif tizimidagi samarali islohotlar, yuksak o'zgarishlar, yangiliklar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'lmoxda. O'quv maskanimizda fan va san'at, ijodiy faoliyat va amaliy texnologiyalar uyg'unlashgan holda ta'lif beriladi. Madaniyat, san'at yo'nalishidagi darsliklar, ilmiy-metodik adapbiyotlar o'quv qo'llanmalari bilan mutazam ta'minlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Chunki bu olyi ta'lif dargohining asosiy maqsadi o'z sohasining malakali kadrlarini tayyorlash, yoshlarga keng imkoniyatlari yaratib berish va ularning iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bugungi yoshlar yurtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, aholi farovonligi yo'lida olib borilayotgan islohotlarni e'tirof etdi.

bayramona tadbirlarda ko'plab iqtidorli talabalarimiz munosib ishtiroy etishmoqda.

Bugungi tadbir davomida 1-bosqich "Estrada aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishi talabalarini tomonidan "Balerina" qo'g'irchoqlar raqsi ko'rsatilgan bo'lsa, 3-bosqich "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishi talabalarini "Usta Gulmat hangomalari" ni namoyish etishdi. 4-bosqich "Dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlar ishtirokida tayyorlangan Gogolning "Revizor" asari asosidagi sahna ko'rinishi ham yig'ilganlarga katta taassurot qoldirdi.

Qolaversa, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekiston xalq hofizi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvonlari sohiblari, iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan chiqishlari hamda dilrabo kuy-ko'shiqlar yig'ilganlarni xushnud etdi. Xonanda-yu, sozandalarning har bir chiqishlari yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Orrombaxsh qo'shiqlarga hamohang tarzda iyo qilingan go'zal raqslar esa barchani davraga chorladı.

Shuningdek, ushbu tadbir munosabati bilan "Asaxiy books" nashriyotining kitoblar yarmarkasi ham tashkil etildi.

Bayram tadbirini barchada esda qolarli kun bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Turli festivallarda, mana shunday

AQL VA KO'NGIL

Aql kirib keldi ko'ngil ko'shkiga. Dedi: "Neni o'ylab turibsiz shu kez?" Ko'ngil der: "Sening tashrifingga mushtoq edim men, ishon, senga mudom cho'kmogchiman tiz". Aqlning hayrati oshdi va dedi: "Nechun? Tiz cho'kmogqa mendan-da ulug' tuyg'ular mavjuddir olanda axir. Dunyon qay rangda ko'rding ayt, ko'ngil?" Ko'ngil sukunatga cho'mdi va dedi: "Ishon, rost aytaman, nursiz edi u". "Dunyon musaffo ko'rmolik uchun darichangni ochgin ezzulik tonom".

MUHAMMAD YUSUFNI ESLAB

O'zining betakror asarları orqali o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirgan serqirra ijod sohibi, mashhur shoir Muhammad Yusuf tavalludining 68 yilligi munosabati bilan shoirning rafiqasini suhabatga chorladik. Muhammad Yusuf nomidagi jamoat fondi rahbari, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibasi, shoira Nazira as-Salom bilan bo'lgan suhabatimiz shoirning bolaligi, uztoslari, ijod va hayot yo'li haqida bo'ldi.

- Muhammad Yusufning she'riyatga kirib kelishi va shoir bo'lib tanilishiga hissa qo'shgan o'qituvchilar haqidagi xotiralarini aytilib o'tsangiz.

- O'zlarining gaplaridan kelib chiqsam, she'rni bolaligidan topgan. O'z sohasini yaxshi bilgan adabiyot o'qituvchisi ham ularga qandaydir bir alohida mehr bilan qaragan. Har bir bolaning taqdiri uchun mas'uliyatni his qilgan, o'qituvchi nomiga gard yuqtirmaslikka intilgan adabiyot o'qituvchisining dars o'tishi, u kishining yuragida she'riyatga mehr uyg'onishiga katta hissa qo'shgan. U kishi yozgan she'rlarini muallimiga ko'rsatgan va ustozining maslahati bilan markaziy gazetalarga yuborgan. O'sha o'qituvchisini juda hurmat qildilar. Qishloqqa borganida u kishini ko'rmsadan kelmas edilar. Muallimiga atab yozgan she'ridan ularga munosabatini bilsangiz bo'ladi.



*Qadri bilinadi endi menga goh,
Olis maktabimning o'sha behasham...
Navoiy-ku bizga ustozdir, biroq
Kimdir o'qitgan-ku Navoiyni ham.
Shunday ulug' zotga harf o'rgatgan kim?..
Oddiy muallim-da, oddiy muallim.
Yo'qdan Beruniylar binolar qilgan,
Mashrabni mashhuri dunyolar qilgan,
Husaynni ibn Sinolar qilgan,
Abdulloning tilin burrolar qilgan,
Ilon o'ynatgandek, so'z o'ynatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim!*

- Turmush o'rtog' im dastlab Namangan pedagogika institutiga hujjat topshirgan. 4-5 oy rezervda turgan ekan. Ma'lum bir sabablar bilan institutni tashlab ketgan. Har ish yaxshilikka, deydilar. Shundan so'ng Toshkentga, rus tili va adabiyoti institutiga tayyorlov kursiga topshirib, keyingi yil o'qishga qabul qilingan. Talabalik yillarda ta'lim bergan ustozlarining ko'pchiligini hurmat bilan tilga olardilar. Institutdagi o'qituvchilar rus adabiyotiga mehr qo'yishiga turki berishgan.

U kishi dastlab Respublika kitobsevarlar jamiyatida, "Toshkent oqshomi" gazetasi, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, "Tafakkur" jurnalni kabi tahririylarda, oxirgi yillarda esa O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ishlagan.

Poytaxtdagi ijodiy muhitga olib kirgan, qishloqdan kelgan soddagina yigitga hayot sabog'ini bergen, ham ustozlik, ham otalik qilgan inson, sevimli adibimiz Nazir Safarovdan umrining oxirigacha minnatdor bo'lganlar. Nazir ota biringhilardan bo'lib u kishining iste'dodini payqagan va she'rlarini Erkin Vohidovga olib borgan. Erkin Vohidov o'sha paytlarda "Yoshlik" jurnalni bosh muharriri edi. Shu yillarda yoshlarning bittadan she'ri jurnal sahifalarida berib borilgan. Ustochning e'tibori bilan turmush o'rtog'imning she'rleri ikki sahifa bo'lib chop etilgan. Bu juda katta rag'bat edi.

"Toshkent oqshomi" gazetasida ishlab yurgan paytlari bosh muharrir Sharof Ubaydullayev edilar. Mening fikrimcha, aynan shu gazetadagi faoliyatni ularni jurnalistikaga yaqinlashtirdi. Ayniqsa, bosh muharrirning talabchanligi u kishining tahrir va jurnalistik mahoratining shakllanishiga yordam bergen. Aynan o'sha tahririylarda "luqma" ko'rinishidagi kichik felyetonchalar, maqlolar yozishga kirishdi. Bosh muharrirning yaratish bergen imkoniyati bilan ijodning yangi qirralarini kashf etdi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti direktori Erkin Vohidovning qo'lstida faoliyat yuritgan davrida ham juda samarali ijod qildi. U kishi ishlaydigan bo'lim rahbari yozuvchi Erkin A'zam edilar. Ular nafaqat rahbar, balki aka maqomida edilar. Muhammad akamni turli toifadagi odamlardan ehtiyyotlar, hayotiy nasihatlar qildi. Nafaqat turmush o'rtog'im, balki oilamiz haqida qayg'urardilar. "Tafakkur" jurnaliga ishga o'tganlarida ham u kishini o'zlarining yoniga chaqirib, erkin ijod qilishiga qo'yib berar, ba'zan akalarcha tergap qo'yardilar. Yozuvchilar uyushmasiga ishga borganlarida esa ustoz Abdulla Oripov e'tiboriga tushdilar. U kishi ustozining har bir o'gitiga riyoja qildi. Har qanday holatda ham sadoqatini saqladi. Ularni otasidan-da ortiq yaxshi ko'rdi.

- Xonadoningizda mushoiralar tez-tez o'tkazilarimi? Muhammad Yusuf qaysi ustozini e'tirof etardilar?

- Do'mondagi dala hovlini yaxshi ko'rardilar. Shamba-yakshanba kunlari bizni ham olib borib, o'zlar qozonda ovqat pishirib berardi. Yaqin qo'shnilarimizdan Nabijon Boqiy, Muslimbek Yo'ldoshev, shoir do'sti Shukur Qurbon va boshaq ijodkorlar yig'ilib qolishar, albatta, ijod haqida, yoshlar ijodi haqida bahs qilishar, she'rler o'qishardi. Yosh shoirlar ularni tez-tez yo'qlab turardi. Turmush o'rtog'im ko'proq yoshlarning ijodini tinglashni yaxshi ko'rardilar. Ustozi Abdulla akaning xislatlarini ko'p tilga olib: "Donishmand inson", - derdi. U kishini hammaga ibrat qilib ko'rsatardi. Nazir otani otasiday e'zozlardagi.

- Nazira opa, sizning fikringizcha, ustoz-shogird an'analarini qanday bo'lishi kerak?

- Ustoz-shogird an'analariga eng sodiq inson sifatida, avvalo, o'z otamni ko'rganman. Farzandlarimni otasi esa shogirdlik maqomini sadoqat bilan ushlagan inson misolida ko'rganman. Ustoz-shogird an'analarini qadriyat deb bilaman. Hozir shu qadriyatga putur yetganday. Yosh ijodkorlarning ayrimlari o'z bilganlaricha "ijod" qildilar. Ustozlar yo'lini, ijodini puxta o'rganish, ularning o'gitarini quloqqa olish, hurmatini joyiga qo'yish, shogirdning bilimini mustahkam qildi, el aro'e'zoz topishiga omil bo'ladi.

Men ulug' yozuvchimiz Tog'ay Murodning rafiqasi, yozuvchi Ma'suma Ahmedovaning shogirdlariga bo'lgan talabchanligi, mehribonligiga ko'p bor guvoh bo'lganman. Ustozining duosini olgan shogirdlar bugun jamiyatda o'zlarining mustahkam o'rniga ega

Anvar QOBILOV suhatlashdi



Qalbimizda mangu yashar MUHAMMAD YUSUF



2020 – 2021-o'quv yilidan bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari uchun Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag'ishlangan maxsus kurslar tashkil qilindi. "Muhammad Yusuf izdoshlari" to'garagine faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, barcha ta'lim yo'naliishlari hamda mutaxassisliklari o'quv rejasiga Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bo'yicha mavzular kiritildi. Malakaviy bitiruvishlari, magistrlik dissertatsiyalari mavzulari Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bilan bog'lab o'rganib borilmoqda. Muhammad Yusufning she'rleridagi mavzularning xilm-a'llilli va rang-barangligi shoirning serqirra ijodkor ekanligini ko'rsatadi. Bu esa uning hayoti va ijodining yana ham chuqurroq o'rganishni talab qildi.

Kechaga mehmon sifatida taklif etilgan Muhammad Yusuf nomidagi jamoat fondi rahbari, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibasi, shoirning rafiqasi, shoira Nazira as-Salom ushu bo'lim dargohida amalga oshirilayotgan mana shunday samarali ishlardan juda ham mammun ekanligini e'tirof etdi.

Qayd etilganidek, Muhammad Yusuf rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shoir muhabbat haqida kuylaydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Satrlardagi ravonlik, soddalik va xalqonalik sabab shoir she'rleri tezda yodda qoladi.

Shuningdek, tadbirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari ishtirokida tashkil etilgan "Muhammad Yusuf she'rleri bilan ijro

etilgan qo'shiqlar" tanlovi g'oliblariga hamda "Zakovat" intellektual musobaqasining 2-tur o'yinlarida g'oliblikni qo'liga kiritgan "Renessans" jamoasi a'zolariqa diplomlar, sertifikatlar va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbir davomida O'zbekiston xalq hofizi Orolmirza Safarov hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituting bir qator iqtidorli talabalari ishtirokidagi musiqiy dastur yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Muhammad Yusuf so'zlariga bastalangan badiiy barkamol qo'shiqlar orgali chin insoniy fazilatlar – ezzulik, odamiylik, mehr va sadoqat tarannum etildi. Bunday qo'shiqlar esa tinglovchilarning estetik didini yuksaltirish, musiqiy saviyasini oshirishda o'ziga xos o'r'in tutadi.

Ashulalarni ijro etgan har bir talabanining iqtidi, iste'dodi esa alohida e'tirofga loyiqdir.

Shuningdek, Muhammad Yusuf tavalludining 68 yilligi munosabati bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatrinda "Musiqali, dramatik teatr va kino san'ati kafedrasi" talabalari ijrosida "Mangu osmon" spektakli namoyish qilindi.

O'zbekistonda xizmatko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor, taniqli rejissor Hamida Mahmudova tomonidan sahnalashtirilgan mazkur asarda Muhammad Yusufning xalqimizda bo'lgan tortib, umrining oxirigacha yo'q. Uning nomi, ijodi tillarda doston, asarları minglab qalblarga qovunch, samimiyat, go'zallik ulashmoqda, she'rleri asosida yaratilgan qo'shiqlari ijro etildi.

"Mangu osmon" spektakli shoirning hayoti va ijodiy yo'lini xronologik tarzda namoyon etishga xizmat qiluvchi sahna asari bo'lib, uning syujet va kompozitsiyasi shoir haqidagi

zamondoshlar xotirasi va she'rleri asosiga qurilgan.

Asarning asosiy maqsadi mustaqillik kuchisi Muhammad Yusufning shoir, jurnalist va jamoat arbobi bo'lib shakllanishi, shoir hayotining kurashlarga boy shodon va mungli sahifalarini uning o'z she'rleri vositasida ochib berishdan iborat bo'lgan. Talabalar rolini mohirlik bilan ijro qilib, zimmasidagi vazifani uddalashdi.

"Muhammad Yusuf el ardoqlagan shoir" nomli adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirda ham Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyati, uning adabiy merosi, shoir asarlarining navqiron avlod tarbiyasida tutgan ahamiyati xususida so'z yuritildi. "Folklor va etnografiya" fakulteti talabalari tomonidan Muhammad Yusufning xalqimiz qalbidan munosib va mustahkam o'r'in egallagan madaniyatimiz va adabiy tafakkurimiz rivojida alohida o'r'in tutgan she'rleri o'qildi. Bir qator iqtidorli talabalarning Muhammad Yusuf so'zlariga bastalangan badiiy barkamol qo'shiqlari ijro etildi.

Ta'kidlandiki, so'zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanimish, musiqiy ravonlik, samimiylig va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo'nda va yaqqol ifodalay bilish Muhammad Yusuf she'riy uslubining yetakchi xususiyatlardir. Shoir bugun oramizda bo'lmasada, xalqimiz o'zining ardoqlari farzandini aslo unutgani yo'q. Uning nomi, ijodi tillarda doston, asarları minglab qalblarga qovunch, samimiyat, go'zallik ulashmoqda, she'rleri asosida yaratilgan qo'shiqlari sevib tinglanmoqda.

O'zDSMI axborot xizmati

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf – samimiylig, sofili, halol, mehribon, rostgo'y vatanparvar va xalqchil inson bo'lgan. O'zining qisqa umri davomida go'zal she'rler, xalqning dardi, orzu-armonlari kuylangan asarlari yaratgan.

Ulug'imsan Vatanim

Do'stni yo'qlab...

Bo'ylarindan o'rgulay Vatan,
Tengsiz jannat, o'xshashsiz chaman.
Seni sevgan, yonib kuylagan,
Muhammadjon bir kelib ketdi.

Ko'klamoyim nuriga o'xshab,
Maysalarning siriga o'xshab,
Bug'doy isli she'riga o'xshab,
Muhammadjon bir kelib ketdi.

Dehqon elga mehri beqiyos,
Erkaliq bir o'ziga xos,
Kapalaklar tinglang, iltimos,
Muhammadjon bir kelib ketdi.

So'ron solib Andijonlarga,
Sifat berib gul rayhonlarga,
Araz qilib gul jononlarga,
Muhammadjon bir kelib ketdi.

Yaratganning mehri keng ekan,
Bor sevgini shoirga bergen,
Jannatlarda she'r aytilib yurgan,
Muhammadjon bir kelib ketdi.

Ko'nglim – menin toza daftaram,
Do'stni yo'qlab bir cheti yarim,
She'rim bitdi.

Birodarlarim, Muhammadjon b-i-r kelib ketdi...
Sayyora TO'YCHIYEVA,
O'zDSMI professori,
falsafa fanlari doktori



Shoir muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Shoirning xotirasini abadiylashtirish borasida yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, nafaqat yurtimizda, balki O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituting o'zida ham Muhammad Yusuf shaxsiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagagi "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlarning o'ttasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalinish chora-tadbirli to'g'risida"gi qarori asosida Muhammad Yusuf ijodini o'rganish esa bizning institutimizga topshirildi.

Ta'lim dargomizning birinchi bosqich talabalari uchun "Muhammad Yusuf – Vatan kuychisi" fani qo'yilgan bo'lib, bu talaba yoshlarning shoir ijodini chuqurroq bilib borishiga imkon yaratadi. Xalqimizning sevimali shoiri Muhammad Yusuf hayot yo'li va ijodini kengroq ko'rsatish uchun O'zbekkino Milliy agentligi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituting o'zida ham Muhammad Yusuf shaxsiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ssenariy yoshlarning o'ttasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalinish chora-tadbirli to'g'risida"gi qarori asosida Muhammad Yusuf ijodini o'rganish esa bizning institutimizga topshirildi.

Ta'lim dargomizning birinchi bosqich talabalari uchun "Muhammad Yusuf – Vatan kuychisi" fani qo'yilgan bo'lib, bu talaba yoshlarning shoir ijodini chuqurroq bilib borishiga imkon yaratadi. Xalqimizning sevimali shoiri Muhammad Yusuf hayot yo'li va ijodini kengroq ko'rsatish uchun O'zbekkino Milliy agentligi, O'zbekiston davlat

Ulug'imsan Vatanim

Qisqa metrajli ushbu film muvaffaqiyatlari tarzda suratga olindi. Bu filmning adib hayotiga bag'ishlangan avvalgi filmlardan farqi shundaki, real hayotda sodir bo'lgan voqealar filmga ko'chgan. Film Muhammad Yusufning bolalik chog'lariidan boshlangan bo'lib, uning bolalikdan qat'iyatli, serg'ayrat bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Yosh shoir va akasi otasidan so'ramasdan uydagi mashinani haydab chiqib ketishadi. Buni qarangki, avtomashinani to'liq boshqarishni bilmagan akasi mashinani daraxtga borib uradi. Muhammadjonga ham, akasiga ham hech shikast yetmaydi. Ammo mashinani urib olganligi va so'ramasdan olib chiqib ketishgani uchun qattiq dakkni eshitishadi. Shunda otasi mashinani kim urib olganligini so'raganida, Muhammadjon qo'rmasdan "men" deya javob beradi. Zero, mashinani boshqargan akasi bo'lsada, akasining gap eshitishini xohlamasdan aybni o'z bo'yning oladi. Albatta, yosh bola uchun bu katta jasorat. Bularning barchasi real hayotda sodir bo'lgan, ya'mi, Muhammad Yusufning akalari tomonidan yozib olingen va shunga asoslangan holda filmning ushbu qismi tasvirga olingen.

Muhammad Yusuf ijodga shunchalar jiddiy qaraganki, she'rlari ichida yashagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir kuni shoir o'z ijodxonasida she'r dunyosiga cho'mib o'tirgan paytda qizalog'i xonada unutib qoldirgan qo'g'irchog'ini olish uchun kiradi. Dadasiga xalaqit bermaslikka qanchalar urinsa ham, Muhammad Yusufning xayoli to'zg'ib, jahl ustida qo'slidagi qalamini sindirib yuboradi. Ayoli Nazira

opa qizalog'ini olib chiqib ketadi. Muhammad Yusuf bu qilganishidan, she'r uchun jajji qizini xafa qilganidan afsuslanadi. Shoир tabiatni qiziqliki, shu onda qiziga atab she'r yozadi. Buni qarangki, yozayotgan she'ri uchun qizini xafa qilgan edi, endi esa yana shu she'r orqali qizidan uzr so'ramoqda. Bu voqeа shoirning rafiqasi Nazira as-Salom tomonidan, qolaversa, shoirning yaqinlari tomonidan ko'p joylarda aytilan. Ammo shu paytgacha sahnaga ko'chmagan edi. "Ulug'imsan Vatanim" filmida bu qismi juda mahorat bilan tasvirlangan.

Vatan so'ziga har kim har xil ta'rif beradi. Shoир vatan mavzusini qalamga olar ekan, ko'ngidagi bor tuyg'ularini shunchalar sodda va ravon tarzda ifoda etadiki, bu kishilar qalbiga osongina yetib boradi. Uning "Vatanim" nomli she'ri shu qadar ta'siri chiqqanki, Sevara Nazarxon tomonidan ijro etilganda, bu she'r qalblarga yanada chuqurroq kirib bordi. Hattoki, bu qo'shiq boshqa millat vakillariga ham shu darajada yoqib qoldiki, xorijlik xonandalari tomonidan "Vatanim" qo'shig'iga chelej bo'lib o'tdi. Fransiya, Rossiya, Meksika, Xitoy, Hindiston va yana bir qator mamlakatlarning xonandalari tomonidan bu qo'shiq kuylandi.

Qaysi millat vakili bo'lishidan qatiy nazar, bu qo'shiqda Vatan tuyg'usingning iliq tarannumi barchaga birdek yoqadi. Yosh, endigina o'sib kelayotgan qalblarga Vatan tuyg'usi buyuk boborimizning yozib qoldirgan asarlari va purhikmat so'zlarini orqali singadi. Vatan tuyg'usi kelgusi avlod qalbida esa ulug' ajodalimiz asarlari qatorida Muhammad Yusuf ijodi orqali shakllanib boradi. Shoир umrining

so'ngida ham elim deb, yurtim deb yonib yashadi. Qoraqlpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida she'rlar tanlovida birinch o'rinni o'lgan qizni taqdirlash uchun Muhammad Yusuf tanlanadi. Shu kuni Muhammad Yusuf Qoraqlpog'istonga yo'l oladi. Afsuski, ushbu kun o'zbek xalqi o'zining jonkuyar, vatanparvar farzandidan ayridi.

Bu yil Muhammad Yusuf tavalludining 68 yilligi yurtimiz miqyosida keng nishonlandi. Shoир tavalludiga bag'ishlab har yili yurtimizda yuqori miqyosdag'i katta tadbirlar bo'lib o'tadi. Shunday tadbirlardan biri "Adiblar xiyobonida" 26-aprel kunida bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, harbiy akademiya talabalari, maktab o'quvchilari ishtiroy etishdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor I.Yo'ldoshev, shoir Sirojiddin Said va Muhammad Yusufning rafiqasi, shoira Nazira as-Salom so'zga chiqdi. Tadbir ko'tarinki ruhda o'tdi. Bu an'ana uzviy davom etgan holda har yili shoir tavalludi keng miqyosda nishonlanib boriladi.

Xulosa o'rnda shuni aytish joizki, Muhammad Yusufning hayoti va ijodini o'rganishimiz bejizga emas, shoir o'z davrida kelajak avlodga munosib meros qoldirgan bo'lib, ularning yaratgan she'rlari va dostonlari takrorlanmasdir. Muhammad Yusuf - qalblarga ko'chgan xalq shoiri. Adibning she'rlari, yaratgan asarlari o'chmas va o'limasdir.

Dildora IRGASHOVA,
Kutubxona-axborot faoliyati
fakulteti 101- guruh talabasi

Yashnobod tumanidagi 307-umumta'lim maktabida "O'zbekiston yagona uyimiz" mavzusida 1-4-sinf o'quvchilari o'ttasida o'tkazilgan rasmlar tanlovi ham katta tayyoragarlik hamda ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Bu tadbirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining butun pedagogik jamoasi, ayniqsa, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи xodimlari faoliyot ko'rsatishdi.



O'zbekiston yagona uyimiz

Ushbu tanlovda tumandagi 39 ta maktabning 1 nafardan o'qituvchisi rang-tasvirlarda iste'dod va qobiliyatini namoyon etdi. Ularning rassomlik mahoratlari yana bir bor sinovdan o'tkazildi.

O'quvchilar chizayotgan rasmlarda Vatanimizning har bir go'shasi kundankunga gullab-yashnab borayotgani, mamlakatimizdagi yangilanish va islohotlar jarayoni, bunnyodkorlik ishlari yaqqol sezilib turdi. Mamlakatimiz ravnaqni yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan xalqimizning mardligi, mamlakatimizning boshqa davlatlar bilan yaxshi qo'shnichiligi munosabatlari rasmlarda jozibador shaklda tasvirlandi.

Ijodiy ishlarda mustaqilligimizni mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni ardoqlash, tariximiz va ulug' ajodolarimizning ma'naviy merosi va qadriyatlarini ulug'lash borasida amalga oshirilayotgan vazifalar, aholi gayjun ko'chalar, obod mahallalar hududlari, korxona, tashkilot, muassasalar binolari yaqqol aks ettirildi. Bu esa o'z navbatida, bolalarda tasavvur va ijodiy fikrplashning rivojlantiradi. Ularda san'at va go'zallikning individual idrokini shakllantirib, yanada tashabbuskor bo'lishga undaydi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh bosqarmasi bo'lim boshlig'i Bahrom Bakiyev hamda yana bir qator professor-o'qituvchilar, tuman xalq ta'limi bo'limi vakillari, maktablardan tashrif buyurgan ustoz-murabbiylar ishtirokida tashkil etilgan tadbirda mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan ijobjiy hamda samarali o'zgarishlar, ta'lim sifatini tubdan yaxhilashga qaratilgan samarali ishlarni xususida fikr yuritildi. Ta'lim berish samaradorligini oshirish, yoshlar tashabbuslarini aniqlash borasida bajarilayotgan muhim vazifalar haqida to'xtalib o'tildi.

Qayd etildiki, so'ngi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha juda muhim vazifalar bajarilmogda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar salohiyatlari kadrlar yetishtirib chiqarishning, iqtidorli, salohiyati yuqori, zamonaviy texnika va texnologiya, axborot kommunikatsion madaniyatini puxta o'zlashtirgan, bilimli, yetut yoshlarni tarbiyalashning muhim omili bo'lmoqda.

Ushbu tanlov ham kelajagimiz egalari bo'lgan o'quvchi-yoshlarning tasviriy san'at borasidagi iqtidor va qibiliyatini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, ularni ma'naviy jihatdan barkamol ulg'aytirishda, har jihatdan sog'lom, intellektual salohiyatlari o'g'il-qizlar bo'lib voyaga yetishda muhim va mustahkam poydevor hisoblanadi.

Mahorat, iqtidor va qibiliyat bobidagi sinovlarda 212-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Sa'diya Tursunova muvaffaqiyatga erishib, 1-o'ringa munosib ko'rildi. Tanlov natijalarga ko'ra 2-o'rinni 23-maktabning 4-sinf o'quvchisi Hamidaxon Yusupova qo'lg'a kiritdi. 3-o'rinni esa 307-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Shahlo Avazova egalladi.

G'oliblar faxriy yorliq esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Tadbir tashkilotchilari tomonidan e'tirof etilganidek, farzandning yutug'i ota-onaga yuqori kayfiyat ulashib, ko'ksini tog'dek ko'taradi. Bolalarining g'alabasidan ota-onaning quvonchi cheksiz bo'ladi. Shu aziz Vatanda yashab, farzandlarining baxtu kamolini ko'rayotganidan qalbi cheksiz faxr-iftoxir tuyg'usi bilan to'lib-toshadi. Ota-onasining, ustozlarining o'gitlariga, nasihatlariga amal qilgan yoshlar faqat yuksak marralarni zabt etadi.



SAMARALI ISHLAR BAJARILDI

O'zbekiston Respublikasi Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati, professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, tajribali olimlari, amaliyotchilar, tadqiqotchilar, tyutorlari, ishchi-xodimlari hamda talabalari bugun erta tongdan ma'muriy va o'quv binolari atrofida obodonlashtirish, ko'kalmazorlashtirish ishlarni olib borishdi. Hashar davomida atrofdagi maydonlar, yo'lak va ariqlar o'tlar va xas-cho'plardan, chiqindilardan tozalandi. Mevali va manzaralari daraxtlarga, gullarga suv quyildi. Chiqindilarni belgilangan hududlarga olib chiqish ishlarni qizg'in amalga oshirildi.

Darhaqiqat, hashar xalqimizning boy tarixi, milliy o'zligimizni namoyon etuvchi an'ana bo'lganligi sababli, insoniylik, mehr-oqibat, o'zaro hamjihatlik, yurtga muhabbat kabi egzu fazilatlarni o'zida mujassam etadi.

Ko'kalmazorlashtirish, obodlik va ona tabiatga mehr timsolni bo'lgan hashar tadbirlari institut jamoasining ahilinoqlik, birkamlik, mehr-oqibat kabi insoniy tuyg'ularini yanada jonlanishiga katta hissa qo'shdi. O'zaro hamjihatlik, inoqlik asosida tashkil etilgan xayrlar tadbir natijasida, ta'lim dargohi hovlisi, o'quv xonalari ozoda, shinam va obod holga keltildi. Ozodalikda amalga oshirilgan har qanday faoliyat

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Ma'rufjon YO'LDOSHEV
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:
Anvar QOBILOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yang'och mavzlesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
[www.dsni.uz;](http://www.dsni.uz)
nashriyot@dsni.uz

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'chhami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxdan.
Chop etishga 28.04.2022-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingen.

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Eldor SHERMANOV

4 | IJODIY PARVOZ

2022-yil aprel
№ 4 (108)

Faoliyat



IJODIY PARVOZ | 5

San'at yo'lida birinchi ustozim – OTA-ONAM



O'zbek dublaj san'atining umidli vakili, O'zbekiston Davlat satira teatri direktori Sanjar SATTOROV bilan suhbatlashdik.

– Eng avvalo, o'zingiz, bolalik davringiz haqida ma'lumot bersangiz.

– 1983-yilda Qashqadaryo viloyatida dunyoga kelganman. Otam Abdujabbor Toshev viloyatimizdagi Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi musiqiy drama teatrda dastlab aktyor, keyinchalik rejissyor

bo'lib faoliyat yuritgan. Onam Nasiba Hasanova Qarshi musiqa kollejida musiqa adabiyotidan ta'lif bergan. Men ilk ta'limi Qarshi shahridagi 14-maktabda, so'ngra 26-maktabda ona tili, adabiyot, tarix va chet tillariga ixtisoslashgan litseyda o'lganman.

– Aktyorlik kasbini tanlashningizda oilaviy muhitning ta'siri qanday bo'lgan?

– Oilamdag'i san'atga xos atmosfera mazkur sohaga qiziqishimni oshirgan. Chunki bolaligimda otam bilan tez-tez teatrda borardim. Spektakllarga tayyorgarlik jarayonlarini kuzatardim. Qolaversa, o'sha

paytlarda "Abulfayzxonning nabiras", "Maugli", "Mirzo Ulug'bekning bolaligi", "Pirmuhammadning yoshligi", "Baxshi yigit" obrazlarini gavdalantirganman. Besh yoshimda rejissyor Jahongir Qosimovning "Yaralangan qush hamon uchmoqda" nomli filmida Obid Yunusov, Erkin Komilov, Rajab Adashev kabi san'at darg'alari bilan rol ijro etdim. Oradan bir yil o'tib, "Jahannamga sakrash", 8-9 yoshlarimda "Qadimda bo'lgan ekan" filmlarida bosh qahramonlarni o'ynadim.

– San'at olamiga qadam yo'ishingizga hissa qo'shgan ustozlaringiz haqida so'zlab bersangiz.

– 2000-yilda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga topshirib kirolmaganimdan keyin "Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi"da chiroq ustasi sifatida ish boshladim. "Qarshi shahar radiosiga" ham tez-tez qatnab, ish o'rgandim. Ko'p o'tmay ustozim, rejissyor Bahodir Rajabov radioboshlovchilikka ishga taklif qildi. Shu tariqa sekin-asta televideniye sohasiga jurnalist, boshlovchi bo'lib kirib keldim. Bu borada mena ustozim Usmon Nusurov katta ko'mak bergen. 2001 – 2005-yillarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor Arsen Ismoilovdan tahsil oldim. "Kuzning birinchi kuni", "Monserro" spektakllarida qatnashdim. Oliygojni tamomlagach, O'zbekiston Davlat satira teatrda Ergash

Karimov, Turdibek Sodiqov, Xayrulla Sa'diyev, Baxtiyor Ixtiyorov, Karim Mirxodiyev, Zarifa Ismoilova, Gulchehra Sa'dullayeva, Lutfilla Sa'dullayevlar bilan bir sahnada ijod qilib, ulardan ko'p narsani o'rgandim.

– Faoliyatizingiz davomida orzungizdagi rollarni ijro eta oldingizmi?

– O'zim yoqtirgan, xohlagan obrazlarimni gavdalantirganman. Uzoq yillar "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuvida, novellalarda, videofilmlarda, "Oqqush", "Opa-singillar", "Tugun", "Tuhmat girdobi", "Nazira", "Balli Kamoliddin", "Ota uyi" singari seriallarda menga topshirilgan rollarni maromiga yetkazishga harakat qildim. Alisher Navoiy obrazini, Gamlet rolini yaratishga bo'lgan qiziqishim, ishtiyoqim juda yuqori.

– Ilk dublyajingiz va ushbu sohadagi faoliyatizingiz haqida to'xtalsangiz.

– Dublyajdagi faoliyatim 2005-yilda boshlangan. Bu sohadagi ilk saboqlarni ustozim rejissyor Komiljon Tursunboyevdan o'rganganman. Ilk ovoz bergen debüt filmlarim "Kisna" va "Fido" nomli hind filmlari bo'lgan. 2008-yilda "Jassiga o'xshashi yo'q" seriali dublyajiga qatnashdim. "Gullar iztirobi", "So'yla, Qoradengiz", "G'aroyib doktor", "Beqaror", "To'qnashuv", "Chuqur", "Zolim Istanbul", "Zuleyha" singari bir qator xorijiy teleseriallarga ovoz berdim.

Anvar QOBILOV
suhbatlashdi.



100 dan ortiq she'riy va nasriy asarlar

Bilamizki, kitob insonnинг eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i, fikrlash quroli, xazinalar kaliti, bilim va tafakkur manbai hisoblanadi. Shu bois, ta'lif jarayonining sifati ham eng avvalo, o'quv qo'llanma va darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida davr ruhiga muvofiq kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida, aynan mazkur masalaga katta e'tibor qaratiladi. Bu borada bir qator ma'naviy-marifiy tadbirlar yig'ilish va anjumanlar o'tkaziladi. Hamkor tashkilotlar bilan samarali loyihibar amalga oshiriladi. Jumladan, kuni kecha o'zaro hamkorlik doirasida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan noyob badiiy adabiyotlar hadya etildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev va boshqa mutasaddilar mazkur badiiy adabiyotlar yoshlarimizning ma'naviyatini yuksaltirish, badiiy tafakkurini yanada kengaytirishda juda muhim o'rinn tutishini qayd etishdi. Ushbu xayrli ishda institutning Kino, televideniye

va radio san'ati fakulteti "San'atda animatsiya va multimediyaviy loyihalash" ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda tashkil etilib kelinayotgan "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida chop etilgan "Ko'nglimdagilar" nomli she'riy to'plami muallifi, shoir Niyatullo Elbek o'g'li tashabbus ko'rsatdi. U Yozuvchilar uyushmasi bilan yaqindan hamkorlikni davom ettirgan holda institut kutubxonasiga 100 dan ortiq nomdagi she'riy va nasriy asarlarni topshirdi. Ushbu kitoblar taqdimoti O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan yuqori saviyada o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga mazkur sovg'alar uchun o'z minnatdorchiligini bildirdi.

SAN'ATPAZLAR BIZGA KERAKMI?

Televizor ko'rishni unchalik xushlamayman (futbol o'yinlari bundan mustasno). Yaqinda gazeta o'qib turib telekanallarning anonsi e'tiborimni tortdi. Ayniqsa, ko'plab teletomoshabinlarga ega bo'lган mashhur telekanallarning deyarli barchasida hech bo'lmaganda bitta(ba'zilari hatto uch-to'rtta) ovqat tayyorlash bo'yicha ko'rtsatuvlar mavjud.

Televizor ko'rishni unchalik xushlamayman (futbol o'yinlari bundan mustasno). Yaqinda gazeta o'qib turib telekanallarning anonsi e'tiborimni tortdi. Ayniqsa, ko'plab teletomoshabinlarga ega bo'lган mashhur telekanallarning deyarli barchasida hech bo'lmaganda bitta(ba'zilari hatto uch-to'rtta) ovqat tayyorlash bo'yicha ko'rtsatuvlar mavjud. Yana bu ko'rsatuvlarda san'atkorlar tomonidan taomlar tayyorlanishi haqida o'ylanib qoldim. Shu o'rinda savol tug'iladi, bizga ular tomonidan tayyorlangan taomning foydasini ko'proqmi, yoki xalq uchun tayyorlagan ijod namunasimi? To'g'ri bu kabi kanallar ko'ngilarochar turdag'i kanallar guruhiya kiradi deyishingiz mumkin. Lekin ovqat pishirib ko'ngilni xushlaydiganlar bizda deyarli topilmasa kerak. IMHO fikri ojizimcha san'at ahlini erkin ijod qilishlariga xalal bermasdan kafe restoran kabi umimiy ovqatlanish shaxobchalarining oshpazlari yuqorida kabi ko'rsatuvlarga chaqirilsa ham ularning tajribasi oshadi ham o'sha restoranlar uchun teknik reklama bo'lib xizmat qiladi. Yurtimizda yaqindagina Ginnes rekordlariga kirgan 8 tonna osh damlanganini inobatga olsak jamiyatimizda oshpazlardan kamchilik sezyapti demagan bo'lardim.

Men bolaligimni eng yorqin xotiralarim O'zbekiston teleradio kanalida efiriga uzatiladigan "Oltin toj" hamda "7x7"(O'yla izla top!) intelaktual o'yinlari bilan bog'lik. Chekka-chekka qishloqladan o'z bilimini va zukkoligini sinab ko'rish maqsadida ming-minglab bolalar ushbu ko'rsatuvlar orqali o'zlarini uch yangi dunyolarni kashf etishardi.

"Oltin toj" ko'rsatuvining madhiyasiga aylangan qo'shiq hamon esimda "Oltin toj oltin toj, zukkolarga bag'ring och".

Yuqorida nomi zikr etilgan ko'rsatuvlarni o'rnini "Oshxona qirollari" kabi ko'rsatuvlar egallayotganini inobatga olsak hozir o'sha qo'shiq quydigicha yangrardi: "Oltin toj oltin toj "oshpaz" larga bag'ring och".

Оқил АБДУБАРНОЕВ

Nazariya va amaliyot uyg'unligi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ta'lrim sifatini oshirish, nazariya hamda amaliyot uyg'unligini takomillashtirish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Shunga muvofiq institut jamoasining bir guruh vakillari O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Media markaziga borishdi. Tashrif avvalida mehmonlar bu yerdagi sharoitlar, ishlash mexanizmlari, dublyaj jarayonlari bilan tanishtirildi.

Shundan so'ng, dublyaj rejissori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Faxriddin Shamsimov bilan institut o'qituvchilar, talabalarining ochiq ijodiy muloqoti tashkil etildi. F.Shamsimov filmni ovozlashtirish jarayonlari haqida ishtirokchilarga batafsil ma'lumot berdi. San'at, madaniyat, rejissura, dublaj va kino sohalarida amalga oshirilayotgan yangilik hamda yangilanishlar, yangi turli xildagi ijodiy ishlanmalar, loyihamalar, suratga olinayotgan tarixiy filmlarning o'zbek kino san'atini yanada

rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi xususida so'z yuritildi.

Uchrashuv davomida talabalar san'at sohasida o'zlarini qiziqtirgan savollar va takliflar yuzasidan batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Suhbat yakunida talabalar ushbu maskanda amaliyot o'tashga taklif qilindi. Maqsad o'quv jarayonlarida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, yoshlarni o'zları istagan sohalari bo'yicha yetuk mutaxasis bo'lishlariga zamin yaratishdan iborat.

Ushbu maqolamizda birligina ovoziyu nigohi orqali botinidagi qudratning kuchini ko'rsatolgan san'atkori, O'zbekiston xalq artisti Hojiakbar Nurmatov haqida fikr yuritdik. H. Nurmatov 1944-yilda Toshkentda tug'ilgan. 1968-yilda A.N. Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutining «Teatr va kino aktyori» fakultetini tamomlagan. 1966- yildan hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatrda aktyor sifatida faoliyat yuritgan.

UMR BAHOSIGA TENG SAN'AT



"Alisher Navoiy" spektaklidagi Mo'min Mirzo aktyorning teatrda ijro etgan ilk roli bo'ldi. Husayn Boyqaroning suyukli nabirasi, Alisher Navoiyning umidli shogirdi Mo'min Mirzo obrazi aktyor ijrosida o'zining favqulodda ta'sirli ifodasini topgan. Tomoshabin Mo'min Mirzo deb Hojiakbar Nurmatovni tanidi. Dastlabki muvaffaqiyatdan ruhlangan yosh aktyor birin-ketin teatrda sahnalashtirilgan spektakllarda Nodir (E.Vohidov, "Oltin devor"), Frans Moor (Shiller, "Qaroqchilar"), Podkolesin (Gogol, "Uylanish"), Levisskiy (Vasilyev, "Ro'yxatlarda yo'q"), Muxbir (S.Ahmad, "Kelinlar qo'zg'onli"), Lyova Grustev (Rozov, "Oqshomdan tushgacha"), Yolqin (Shukrullo, "Tabassum o'g'rilar") kabi rang-barang rollarni ijro etdi.

Yu. Roziqovning "Domla", T.Malik va Yo.Sa'diyevning "Shaytanat" televizion filmlaridagi Domla va mayor Soliyev kabi obrazlar Hojiakbar Nurmatovning kinodagi ijodiy mehnatining sara mahsullaridir. U ko'p yillarda mobaynida dublyajlarda qatnashdi "Qirol Lir", "Ishqdagi ishq", "Maxobxorat", "Dallas" kabi badiiy va televizion filmlarga ovoz berib, o'zining yoqimli toplanishlarga boy ovozi bilan muxlislar mehrni qozongan.

Qolaversa, o'tgan asrning 60-80-yillarda O'zbekiston radiosida o'zbek, rus va qardosh xalqlar yozuvchilarining yirik-yirik asarlari inssenirovka qilindi, radiospektakllar tayyorlandi. "Teatr mikrofon oldida" singari adabiy eshitirishlar yuzaga keldi. Ana shu ijodiy jarayonda Hojiakbar Nurmatov ham faol qatnashdi. "Dubrovskiy" (A.S.Pushkin), "Yo'lbars terisini yopigan pahlavon" (Sh.Rustaveli) va o'zbek yozuvchilarasi asarlari asosida magnit tasmalariga yozilgan radiospektakllarda ko'plab rollar ijro etgan.

Atoqli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev aktyor bag'ishlangan xotirasida "Ishonch bilan shuni aytamanki Hojikbar Nurmatov o'zbek teatri tarixida O'zbek Milliy akademik teatri tarixida o'z muhrini qoldide oldi. San'atkorninng bunday ulug' qismati hatto elning e'tirofiga sazovar bo'lgan emas ko'plab taniqli aktyorlarga hali ham barn etgan emas" deb yozganlarizi ming karra xaq edilar.

O'zbekistonda xizmat ko'satgan madaniyat xodimi, qalami o'tkir jurnalist, sohir ovoz sohibi Muslimbek Yo'ldoshev qahramonimiz haqida qalamlariga mansub bo'lgan "O'zbek Milliy akademik drama teatri arbobi" kitobida Hojiakbar Nurmatov haqida "O'tgan asrning 60-80 yillarda radiosiga o'zbek, rus va qardosh xalqlar yozuvchilarining yirik-yirik asarlari instinobka qilindi, radiospektakller tayyorlandi. "Teatr mikrofoni oldida" singari adabiy eshitirishlar yuzaga keldi. Ana shu ijodiy jarayonda Hojikbar Nurmatov ham faol qatnashdi. "Dubroskiy" (A.S.Pushkin) "Yo'lbars terisini yopigan pahlavon" (Sh.Tustavili) va o'zbek yozuvchilarining asarlari asosida magnit tasmagalarga yozilgan radiospektakllarga ko'plab rollar into etdi" deb yozgan.

O'zbekiston xalq artisti, mahoratli aktyor Erkin Komilov qadrondan o'sti haqida shunday tarif berdilar "Hojikbar bilan birga o'qidek, teatrga ham bir vaqtida borib ijodimizni boshladik. Hojikbarni bir xarakteri yoqardi, har doim nimadir qilishga urinardi. Shu kasalxonada ko'rgani borganimdag'i oxirgi gaplari hali ham qulog'in tagida jaranglaydi. "Meni olib qolninglar hali qiladigan ko'p ish qilishim kerak, hali o'ynaydigan ro'llarim juda ko'p mani olib qolninglar" degani edi. Hojikbarni hali o'ynaydigan rollari, hali qiladigan ishlari juda ko'p edi. Ming afsus shum taqdir uni oramizda erta olib ketdi".

Zarnigor MUSAYEVA,
Teatr san'ati fakulteti 1 kurs talabasi



Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada churq o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir.

VATAN TAQDIRINI YOSHLAR TARBIYASI HAL QILADI

Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti sifatida Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergen intevyulari meni juda ruhlantirdi. Sababi, "Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida ijtimoiy madaniyat rivojlanishining o'ziga xos tendensiyalari" mavzusida ilmiy izlanishlar olib boryapman va ushbu intevyu men uchun dasturul amal bo'lib hizmat qiladi.

Keyingi yillarda madaniy-gumanitar yo'nalishda – madaniyat, san'at, kino, teatr, raqs va tasviriy san'at sohalarini, adabiyot va kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz xalqimizga yaxshi ma'lum, albatta. Xususan, O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlanishish konsepsiyasini qabul qilinganligi, unga muvofiq, xalqaro maqom anjumani, baxshichilik va milliy hunarmandchilik festivallarini yuksak saviyada tashkil etilganligi kabi misollarni keltirish mumkin. Bundan tashqari, Yunus Rajabiy nomidagi milliy maqom institutini tashkil etilganligi ham soha rivoji yo'lida tashlangan dadil bir qadam bo'ldi deyish mumkin. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merozi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinch – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshari singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

"Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoni, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun muslimmon olamining faxru iftixori ekanligi barchamizni cheksiz g'ururlantiradi.

O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettingan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'n ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Prezidentimiz tashabbusi va amaliy ko'magi tufayli mamlakatimizda yoshlar siyosati mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishslash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. So'nggi to't yil davomida yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun, davlatimiz rahbarining 7 ta farmoni, 14 ta qarori, 2 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 23 ta qarori va 4 ta farmoyishi imzolangan. O'g'il-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlарini ta'minlash, orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishiga aylanib, bu yo'lda ulkan ishlar bajarilmoqda. Qo'shi ni mamlakat – Avg'oniston hududida ro'y bergan hodisalarining o'zi bizni yana bir karra shukronallikka chaqirdi. Tinch, osoyishta yurtimizda yaratilayotgan g'amxo'rlik va e'tibordan ruhlanib, biz yoshlar ham, o'z navbatida, Vatan va xalq taqdiringa daxldorlikni yurakdan jis etib, islohotlarga kamarbasta bo'lishga vada beramiz. Barcha yurdoshlarimizga eng ulug', eng aziz bayramimiz muborak bo'lsin. Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin.

Jumagul NISHONOVA,
Yoshlar yetakchisi



**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat
Mirziyoyev tashabbusi bilan
tashkil etilgan Respublika
yosh ijodkorlarining
"Zomin qaldirg'ochlari"
seminari bir necha yillardan
buyon iste'dodli yoshlarni
kashf qilishga xizmat qilib
kelmoqda.**

O'tgan yili seminar karantin munosabati bilan onlaysin tarzda tashkil etilgan bo'lsa, ushbu yil yurtimizning barcha go'shalaridan saralangan ijodkor yoshlar ustozlar sabog'i olish va o'z ijodiy ishlar bilan munosib ishtirot etish uchun vigorli tog'lar bag'rida joylashgan Zomin go'shasiga tashrif buyurishdi.

KITOBIM — OFTOBIM

**San'at milliy jamg'armasi tomonidan
o'tkazilgan tadqiqotlar kitob o'qiydigan
insonlar madaniy va ijtimoiy hayotda ham faol
bo'lishlarini isbotladi.**

Yaqinda Ilkka Taypale tahriri asosida nashr etilgan "Finlandianing 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi" kitobini o'qib chiqdim va uqganlarimni sizlar bilan bo'lishgim keldi. Finlar butun dunyonи kutubxonalaridan foydalaniш bo'yicha ortda qoldirganlar: Finlyandiya fuqarosi bir yilda o'rtacha 11 marotoba kutubxonaga tashrif buyuradi va 17 dona kitob, audio yoki boshqa turdag'i ma'lumotlarni oladi. Qol'llarda jami bo'lib 3 millionta kutubxona kartochkasi mavjud. Nega finlar kutubxona xizmatlaridan bunchalik faol foydalanadilar? Kutubxonalar finlar hayot tarzining bir qismidir. Bilimlar Finlyandiyada juda ham qadranadi. Finlar – kitobxon bo'lgan millatdir. Bu kitoblarining sotilish darajasi, matbuotni o'qiydigan odamlari soni va har yilgi kitob yarmarkalarining juda ham mashhurligida bilinadi. Ayniqsa, bolalar va yoshlar uchun mo'ljalangan kitoblar yaxshi sotiladi. Kutubxonalar kishilarning turli xildagi aqliy talablarini qondirishga qodir bo'lganliklari uchun ham bunchalik katta talabga sazovorlar. Kutubxonalar o'z assortimentlarini kengaytirdilar va endilikda faqatgina kitoblar emas, balki musiqa va video materiallarini



ham taklif qilmoqdalar. Oxirgi o'n yillikda kutubxonalar tomonidan taklif qilinayotgan assortiment elektron kitoblar hisobiga kengaydi. Ilmiy nashrlarning elektron nusxalarini universitetlar kutubxonalar uchun nodir va ahamiyatlari manba bo'lib qoldi. Finlyandianing har bir hokimligida jamoat kutubxonasi bor – jami Finlyandiya bo'yicha taxminan 800 kutubxona mavjud. Kutubxonalarimiz muvaffaqiyatining garovi bir necha omildan iborat. Axborotlashtirilgan jamiyatni shakllantirish bo'yicha hukumat dasturlarida kutubxonalarga salmoqli o'ren ajratilgan. Kutubxona xodimlari axborot ishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislariga aylandilar.

Mamlakatdagi barcha kutubxonalar yagona tarmoqni tashkil qiladi. Ushbu o'zaro faoliyat kutubxona mijozlariga mahalliy darajada xizmat ko'rsatishda ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtida, milliy miqyosda esa umumiy foydalaniш xizmatlarini ishlab chiqish imkonii mavjuddir. Hozirgi kunda kutubxona – finlar orasida eng keng foydalilanidigan madaniy muassasadir.

**Nasiba ABDULLAYEVA,
"Ijtimoiy-madaniy faoliyat"
ta'lif yo'nalishi 3-kurs talabasi**

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'chhami – A3, hajmi 2 bosma taboq. Nusxasi – 540 dona. Narxi kelishilgan narxda. Chop etishga 10.06.2021 yilda topshirildi.

Gazeta har oying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi. Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota OFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.

Iqtidorli yoshlar seminari

5-8 iyul kunlari so'lim "O'rikli soy" oromgohida bo'lib o'tgan seminar ishtirokchilari viloyat va tuman rahbarlari, keng jamoatchilik tomonidan tantanali tarzda kutub olindи.

"O'rikli soy"da 4 kun davomida she'riyat, nasr, adabiy tanqid, badiiy publisistika, badiiy tarjima, bolalar adabiyoti, dramaturgiya, rus adabiyoti kabi sho'balarga bo'lingan holda yosh ijodkorlar bilan turli seminarlar, davra suhbatlari, tanqidiy-tahvilay yig'inalar, mahorat darslari olib borildi.

Zomin seminarining bosh shiori Prezidentimizning "Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatanadabiyotiga Jizzax diyordan qo'yayotgan qadamlari qutulg' bo'lsin!" degan hikmatli so'zlari bo'ldi. Mazkur yilgi seminarda Qoraqlapog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan 65 nafar yosh ijodkorlar turli saralash bosqichlaridan o'tib keldilar. Ular orasidagi eng munosiblari seminar davomida saralandi va ijodiy ishlari "Birinchi kitobim" loyihasiga tavsiya etildi. Ushbu seminarda institutimizning 5 nafar ijodkor talarbali ham muvaffaqiyatlari ishtirok etishdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev ushbu seminarida g'olibklarni qo'lgakiriting, yosh ijodkorlar talabalarimiz Madaniyatshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti Jumagul Nishonovaga dramaturgiya yo'nalishida, "Sahna va ekran san'ati dramaturgiysi" ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi Feruza Tursunxo'jayevaga dramaturgiya yo'nalishida, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi Shahboz Fayzullayevga she'riyat yo'nalishida g'olib bo'lganligi uchun O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining qimatbaho sovg'a alari, institutimizning tashakkurnoma hamda esdalik

sovga'larini tantanali ravishda topshirdi. Mazkur mintaqaviy anjumanda "Kino tanqidi va tahlili" ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi Suxrob Qodirov hakamlar hay'ati a'zosi, "Ashula va raqs" ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi Rustam Yigitaliyev va Yahyobek Muqimjonovlar esa hamkor tashkilot vakili sifatida qatnashdi. Institutimizning ushbu vakillari ham qimmatbaho sovg'a va tashakkurnoma bilan taqdirlandi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olayotgan 3 nafar talabani ijodiy ishlari hakamlar hay'ati tomonidan alohida e'tirof etilib, "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida chop etiladigan bo'ldi.

Shu yerning o'zida O'zbekiston kino san'atining o'tmishi, bugungi kuni to'g'isisda muloqot bo'lib o'tdi. Suhabat jarayonida bugungi kino san'atini rivoji uchun yoshlar nima qilishi kerak degan savolga yoshlar bir ovozdan kitob o'qish kerak deya javob berishdi. Darhaqiqat, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishida shunday buyuk qudratga ega bo'lgan narsa bu shubhasiz kitobdir. Usiz jamiyat bu qadar muvaffaqiyatga erisha olmagan bo'lar edi. Kitobning bu qudratini yoshlar to'g'ri anglay olyaptimi? Shu savol ko'pchilikni qiyayotgani rost. Ayni paytda ba'zi yoshlar mutolaaga ajratishi zarur bo'lgan vaqtini tarbiyaga hech qanday ijobji ta'siri bo'lgan narsa serialarga, ko'ngilochar gazetalarda berilayotgan oldi-qochdi "hikoya"larga sarflamoqda. Ular milliy va jahon mumtoz adabiyotiga mansub asarlarning emas, hattoki, umuman har qanday kitobni, agar u jindek o'ya toldiradigan, tafakkurga chorlaydigan bo'lsa, qo'llariga olgisi kelmayapti. Ammo jamiyat rivoji uchun tafakkuri teran, har jabhada faol fikrlovchi avlod kerak.

"Zomin seminari-2021" mintaqaviy seminari g'oliblari bo'lgan talabalar tomonidan she'rlar o'qildi, ashulalar ijo qilindi.